



ISSN 2010-7145

FARMATSEVTIKA JURNALI

Фармацевтический журнал
Pharmaceutical journal

2025.
Tom 34. №4

НАУЧНЫЙ ЦЕНТР СТАНДАРТИЗАЦИИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ

Все виды услуг по
РАЗРАБОТКЕ И СТАНДАРТИЗАЦИИ
лекарственных средств

ИСПЫТАТЕЛЬНЫЙ ЦЕНТР АККРЕДИТОВАН
ПО СТАНДАРТУ ISO/IEC 17025:2007

«Общие требования по компетентности
испытательных лабораторий
и калибровки»

НАШИ УСЛУГИ

КОНТРОЛЬ КАЧЕСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ

- УСЛУГИ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ ПРЕДПРИЯТИИ ПО КОНТРОЛЮ КАЧЕСТВА ПРЕПАРАТОВ;
- АНАЛИЗ МИНЕРАЛЬНЫХ ВОД ПО СТАНДАРТУ OZ DN 340:2018 «ВОДЫ МИНЕРАЛЬНЫЕ ПИТЬЕВЫЕ. ЛЕЧЕБНО-СТОЛОВОЕ, СТОЛОВОЕ» ОБЩИЕ ТЕХНИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ;
- РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ;
- РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ АНАЛИЗА ИЛИ АДАПТИРОВАНИЯ ИМЕЮЩИХСЯ С УЧЕТОМ СПЕЦИФИКИ И УСЛОВИЙ;
- РАЗРАБОТКА И СОГЛАСОВАНИЕ ПРОЕКТОВ ФАРМАКОПЕЙНЫХ СТАТЕЙ И РЕЗЮМЕНТОВ;
- ОПРЕДЕЛЕНИЕ МИКРОБИОЛОГИЧЕСКОЙ ЧИСТОТЫ, СТЕРИЛЬНОСТИ, АНТИМИКРОБНОЙ АКТИВНОСТИ И КОЭФФИЦИЕНТОВ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ А ТАКЖЕ ВЫДЕЛЕНИЕ РОСТОВЫХ СВОЙСТВ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД;
- ОПРЕДЕЛЕНИЕ БАКТЕРИАЛЬНЫХ ИНДИКАТОРОВ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ;
- РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ;
- ПРОВЕДЕНИЕ ПОЛНОГО ЦИКЛА ИССЛЕДОВАНИЙ ПО РАЗРАБОТКЕ НОВЫХ ПРЕПАРАТОВ, НАЧАВШАЯ ОТ РАЗРАБОТКИ ТЕХНОЛОГИИ ЛЕКАРСТВЕННОЙ ФОРМЫ, ИЗУЧЕНИЕ ЕЕ СТАБИЛЬНОСТИ, А ТАКЖЕ ПРОВЕДЕНИЕ ПОЛНОГО ЦИКЛА, ФАРМАКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ОБЩЕЙ ТОКСИЧНОСТИ, СПЕЦИФИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ, БИОЭКВИВАЛЕНТНОСТИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ;



- РАЗРАБОТКА ПОЛНОГО ПАКЕТА НОРМАТИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ ДЛЯ РЕГИСТРАЦИИ И ПРОИЗВОДСТВА ПРЕПАРАТА, АДАПТИРОВАННЫХ ПОД ТРЕБОВАНИЯ ЗАКАЗЧИКА;
- ВСЕ ВИДЫ КОНСУЛЬТИНГОВЫХ УСЛУГ И РЕШЕНИЕ ВОПРОСОВ С СОЗДАНИЕМ, СТАНДАРТИЗАЦИЕЙ И ВНЕДРЕНИЕМ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ;
- ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ СПЕЦИАЛИСТОВ, ОТВЕТСТВЕННЫХ ЗА ПРОИЗВОДСТВО И КАЧЕСТВО ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ, ВЫПУСКАЕМЫХ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ, РАБОТАЮЩИХ ПО ПРАВИЛАМ GMP ИЛИ ПРИСУТСТВУЮЩИМ К НИМ, ОСОБЕННО И ВНЕДРЕНИЕ НА ПРОИЗВОДСТВЕ.

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ

Оказание научно-методической и практической помощи фармацевтическим предприятиям, организациям, ИФФ и ВУЗам, занимающимся вопросами создания и разработки новых лекарственных средств в сфере стандартизации, фармако-токсикологических исследований, и разработки нормативных документов с учетом международных требований.

Центр основан в 2001 году на базе Ташкентского фармацевтического института и ГУП «Государственный центр экспертизы и стандартизации лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники», согласно приказа МЗ РУз.



СТРУКТУРНЫЕ ПОДРАЗДЕЛЕНИЯ НАУЧНОГО ЦЕНТРА

- ЛАБОРАТОРИИ КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА И СТАНДАРТИЗАЦИИ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ
- ЛАБОРАТОРИИ МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

- ЛАБОРАТОРИИ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ
- ЛАБОРАТОРИИ ФАРМАКО-ТОКСИКОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ
- НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР
- УЧЕБНЫЙ ТРЕНИНГ-ЦЕНТР ПО СОВРЕМЕННЫМ МЕТОДАМ АНАЛИЗА

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

FARMATSEVTIKA BOZORIDA SHAMCHA DORI SHAKLINING O'RNI VA TAHLILI

**Habibullayeva Nargizaxon Hamidullo qizi,
Ziyamuhamedova Munojot Mirgiyasovna,
Saidova Mamlakat Yadgarovna**

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi
nargizaxonhabibullayeva@gmail.com

Ushbu maqolada 2022–2024-yillar oralig'ida davlat reyestrda ro'yxatdan o'tgan shamcha dori shakllarining tahlili o'tkazilib, ularning faol moddalari terapevtik yo'nalishlari, qo'llanilish chastotasi hamda ishlab chiqaruvchilarning tarkibiy tuzilmasi yoritilgan. 2024-yil holatiga ko'ra, xorijiy ishlab chiqaruvchilarning O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi ulushi 53,3%, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlaridan keltirilgan dori vositalari ulushi 16,1%, mahalliy ishlab chiqaruvchilar hissasi esa 30,6% ni tashkil etgani aniqlangan. 2022–2024-yillar davomida ro'yxatga olingan shamcha dori shakllari soni biroz kamaygan bo'lsa-da, ularning farmakoterapevtik yo'nalishlari va tarkibiy xilma-xilligi ortib borayotganligi kuzatilgan.

Kalit so'zlar: shamcha, marketing tahlili, farmakoterapevtik guruh, analgetik-antipiretik, antibakterial vosita, antibiotik, antikoagulyant, antiseptik vosita.

Zamonaviy farmatsevtika sohasi inson salomatligini tiklash va mustahkamlashga xizmat qiluvchi turli xil dori vositalarini ishlab chiqish hamda qo'llashni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda dori vositalarini qabul qilish shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Farmatsevtikada dori vositalarining turli shakllari mavjud bo'lib, ular orasida yumshoq dori shakllari alohida o'rin egallaydi. Ushbu shakllar bemorlar uchun qulaylik, samarali ta'sir va mahalliy davolash imkoniyatlarini taqdim etadi. So'nggi yillarda farmatsevtika sohasidagi innovatsiyalar yumshoq dori shakllarining turlari va sifati bo'yicha sezilarli o'sishga olib kelmoqda [6].

Yumshoq dori shakllari — surtmalar, krem va emulsiyalar, gel va pastalar, shamchalar, linimentlar — farmatsevtikada keng qo'llaniladigan va terapevtik samaradorligi yuqori bo'lgan dori shakllaridir. Ularning asosiy afzalliklari — mahalliy ta'sir ko'rsatishi, tizimli yon ta'sirlarni kamaytirishi, qo'llash qulayligi hamda simptomlarni tez bartaraf etish qobiliyatidir. Ayniqsa bolalar, yoshi katta bemorlar hamda og'iz orqali dori qabul qila olmaydigan holatlarda ularning qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega [9].

Yumshoq dori shakllari dermatologik, ginekologik va revmatologik kasalliklarda keng qo'llaniladi. So'nggi yillarda ularning tarkibi doimiy takomillashib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy va gipoallergen komponentlarga asoslangan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu holat kosmetologiya va farmatsevtika sohalarida yumshoq dori shakllarining ulushi oshib borayotganini ko'rsatadi. So'nggi 5–10 yillikda farmatsevtika bozorida

yumshoq dori shakllariga bo'lgan talab o'rtacha 6–8% yillik o'sish bilan rivojlanmoqda [3,8].

Respublikamizda shamcha dori shakllari assortimentini tahlil qilish, ularning samaradorligi, xavfsizligi hamda mahalliy ishlab chiqarilishini kengaytirish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda shamchalar (suppositorium) farmatsevtikada keng qo'llanilayotgan, yuqori samaradorlikka ega dori vositalari shakli sifatida e'tirof etilmoqda.

Suppozitoriylar — rektal qo'llash uchun mo'ljallangan, qattiq dozalangan dori vositalari bo'lib, ularning shakli, hajmi va konsistensiyasi to'g'ri ichakka yuborish uchun mos bo'lishi lozim. Ular tarkibida suvda yoki tana haroratida eriydigan asosda eritilgan yoki disperslangan, bir yoki bir nechta ta'sir etuvchi moddalar mavjud bo'lishi mumkin. Bunday dori vositalari gemorroy, ichki yallig'lanish kasalliklari, ginekologik infeksiyalar, shamollash, og'riq sindromlari va boshqa holatlarda keng qo'llaniladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, shamcha dori shakllari assortimenti va ularni ishlab chiqaruvchi korxonalar haqidagi ma'lumotlarni o'rganib tahlil qilish ushbu turdagi dori vositalari ishlab chiqarishini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Ishning maqsadi. 2022–2024-yillar davomida O'zbekiston farmatsevtika bozorida davlat reyestrda ro'yxatdan o'tgan shamcha dori shakllari assortimentini, mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilarning bozor ulushini o'rganish, ularni farmakoterapevtik guruhlar bo'yicha

tasniflash, shuningdek rektal va vaginal qo'llaniladigan shamchalar tarkibi bo'yicha tahlil o'tkazishdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi "Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" davlat muassasasi ma'lumotlaridan foydalanildi. Tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestrining 2022–2024-yillardagi (№26, №27, №28) sonlarida keltirilgan ma'lumotlar tanlab olindi. Ma'lumotlarni o'rganishda kuzatish va kontent tahlili usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. O'zbekiston Respublikasi Davlat reyestrda qayd etilgan dori vositalari tahlili 2024-yilda xorijiy ishlab chiqaruvchilarning farmatsevtika bozoridagi ulushi 53,3%, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlaridan keltirilgan dori vositalari ulushi 16,1%, mahalliy korxonalar hisssasi esa 30,6% ni tashkil etganini ko'rsatdi.

Umuman olganda, shamchalar O'zbekiston farmatsevtika bozorida qayd etilgan dori vositalarining atigi 2% ini tashkil etadi. 2022–2024-yillar oralig'ida shamcha dori shakllari assortimentining tahlili natijalariga ko'ra, mahalliy farmatsevtika korxonalarining ichki bozordagi ulushi mos ravishda 2022-yilda 28,60%, 2023-yilda 30,30%, 2024-yilda esa 32,10% ni tashkil etdi.

MDH davlatlaridan keltirilgan shamchalar ulushi 2022-yilda 40,60%, 2023-yilda 29,90%, 2024-yilda esa 35,80% ni tashkil qilgan. Xorijiy davlatlar tomonidan yetkazib berilgan shamchalar esa 2022-yilda 30,90%, 2023-yilda 39,80%, 2024-yilda esa 32,10% ulush bilan qayd etilgan.


Ushbu raqamlar 1-jadval va 1-rasmda aks ettirilgan bo'lib, so'nggi uch yillikda shamchalar bozorining tarkibiy o'zgarishlari va ishlab chiqaruvchi manbalar bo'yicha taqsimoti bo'yicha sezilarli dinamikani ko'rsatadi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan shamcha dori shaklini o'rganish, ularning 16ta xorijiy davlatlar tomonidan ish-

1-jadval

O'zR Davlat reyestrda qayd etilgan dori vositalari tahlil natijalari

Yillar	Ro'yxatdan o'tgan dori vositalari\ shamchalar soni			
	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar	MDH	Xorijiy ishlab chiqaruvchilar	Umumiy
2022	3069/62	1839/88	5867/67	10755/217
2023	3177/67	1846/88	6113/66	11136/221
2024	2966/61	1559/68	5178/61	9703/190



1-rasm. 2022–2024-yilda O'zR Davlat reyestrda qayd etilgan shamcha dori shakli tahlil natijalari diagrammasi

lab chiqarilganini ko'rsatdi. Bunda ishlab chiqaruvchi davlatlar taqdim etgan dori vositasining savdo nomlari tahlili bo'yicha Hindiston liderlik o'rinni 33%, undan so'ng Italiya 12%, Turkiya 11%, Argentina 7%, Polsha, Fransiya, Gretsiya 5%ni egallab turibdi (2-jadval, 2-rasm) [1,4].


Shamcha ishlab chiqaruvchi xorijiy davlatlar tahlili. MDH davlatlari tomonidan ishlab chiqarilgan va

mahalliy farmatsevtika bozori holatiga ko'ra 3-yil davomida mos ravishda Rossiya (18,9; 18,55; 18,9%), Moldova (10,6; 10,4; 8,9%), Ukraina (6,4; 6,3; 5,2%) ko'rsatkichlarni namoyon qilgan. (3-jadval).

Mahalliy ishlab chiqaruvchi farmatsevtik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan shamcha dori shakllari assortimentini o'rganish natijasida O'zbekistonda 5 ta ishlab chiqarish korxonasi tomo-

2-jadval.

№	Ishlab chiqaruvchi davlatlar nomi	Dori vositalarining son va foiz miqdor ulushlari					
		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
		soni	%	soni	%	soni	%
1	Argentina	4	1,8	4	1,8	5	2,6
2	Vengriya	1	0,4	1	0,4	1	0,5
3	Germaniya	4	1,8	4	1,8	3	1,6
4	Gretsiya	4	1,8	4	1,8	2	1
5	Misr	2	0,9	2	0,9	2	1
6	Hindiston	19	8,7	22	9,9	21	11
7	Eron	1	0,4	1	0,4	1	0,5
8	Italiya	8	3,6	7	3,1	7	3,6
9	Xitoy	4	1,8	4	1,8	4	2,1
10	Paragvay	1	0,4	1	0,4	1	0,5
11	Polsha	3	1,3	3	1,3	3	1,6
12	Ruminiya	3	1,3	1	0,4	1	0,5
13	Turkiya	7	3,22	7	3,1	7	3,6
14	Fransiya	4	1,8	3	1,3	2	1
15	Shveysariya	1	0,4	1	0,1	1	0,5
16	Makedoniya	1	0,4	1	0,1	0	0



2-rasm. OʻzR farmatsevtika bozorida shamcha ishlab chiqaruvchi xorij davlatlarining taqsimlanish diagrammasi

nidan 60 ta shamcha dori shakli OʻzR Davlat reyestridan roʻyxatdan oʻtkazilib, tibbiyot amaliyotiga qoʻllash uchun taqdim etilgani maʼlum boʻldi. Jumladan, "Merry Med" MChJ (9), "Sharq Darmon" MChJ (14), "Denta-fill Plyus" MChJ (13), "Radiks" MChJ (7), "Pharmacon LLC" MChJ (17) tomonidan shamcha dori shakllari ishlab chiqarilgan (4-jadval).

Keyingi olib borilgan tahlil shamchalarning farmakoterapevtik guruhlariga boʻyicha oʻtkazilgan boʻlib, natijalar quyidagi 5-jadvalda keltirilgan. Roʻyxatdan oʻtkazilgan shamcha dori shakllarining farmakoterapevtik guruhlariga orasida eng yuqori koʻrsatkich "Nosteroid yalligʻlanishga qarshi vositalar" guruhiga toʻgʻri keladi. Ushbu guruhda har yili 20 dan or-

Shamcha ishlab chiqaruvchi MDH davlatlar tahlili

№	Ishlab chiqaruvchi davlatlar nomi	Dori vositalarining son va foiz miqdor ulushlari					
		Soni	%	soni	%	soni	%
		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
1	Armeniya	2	0,9	2	0,9	2	1
2	Belarusiya	8	3,7	8	3,6	3	1,6
3	Moldova	23	10,6	23	10,4	17	8,9
4	Rossiya	41	18,9	41	18,5	36	18,9
5	Ukraina	14	6,4	14	6,3	10	5,2

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan shamcha dori turi (2024-yil uchun)

№	Ishlab chiqaruvchi firma	Xalqaro nomi	Dori shakli	Soni
1	Merrymed Farm, MChJ	Glycerol	Rektal shamlar 1,24 g va 2,11 g №10 (2×5)	9
		Papaverine hydrochloride	Rektal shamlar 20 mg №10 (2×5)	
		Indometacin	Rektal shamlar 50 mg, 100 mg №10 (2×5)	
		Metronidazole, miconazole nitrate	Vaginal shamlar 750 mg + 200 mg №5, №7, №10, №14	
		Ketoprofen	Rektal shamlar 50 mg, 100 mg №10 (2×5)	
		Paracetamol	Rektal shamlar 125 mg, 250 mg №5, №6, №10	
		Metronidazole, Clotrimazole, Chlorhexidine acetate	Vaginal shamlar №5, №7, №10, №14	
		Oleum curcumae, Borneol	Vaginal shamlar №5, №7, №10, №14	
		Prostate extract	Rektal shamlar 30 mg, 50 mg №5, №10	
2	Sharq Darmon, MChJ	Metamizole sodium, Diphenhydramine	Rektal shamlar 100 mg/10 mg, 250 mg/20 mg №5 (1×5), №10 (2×5)	14
		Bisacodyl	Rektal shamlar 10 mg №5, №5 (1×5), №10 (2×5)	
		Policresulen	Vaginal shamlar №3, №5, №6 (1×6), №10 (2×5)	
		Diclofenac sodium	Rektal shamlar 12,5 mg, 25 mg; №5 (1×5), №10 (2×5)	
		Diclofenac	Rektal shamlar 50 mg, 100 mg №5 (1×5), №10 (2×5)	
		Ketoprofen	Rektal shamlar 100 mg №5 (1×5), №10 (2×5)	
		Clotrimazole	Vaginal shamlar 100 mg №3 (1×3), №6 (1×6), №10 (2×5)	
		Metronidazole, Chloramphenicol, Nystatin	Vaginal shamlar №3, №6 (1×6), №10 (2×5)	
		Metronidazole, Clotrimazole, Chlorhexidine	Vaginal shamlar №3, №5, №6, №7, №10	
		Metronidazole	Vaginal shamlar 500 mg №5, №10	
		Neomycin, Polymyxin β, Nystatin	Vaginal shamlar №3, №5, №6, №10	
		Hippophae rhamnoides	Rektal shamlar 500 mg №5, №10	
		Flucortolone, Cinchocaine hydrochloride	Rektal shamlar №5, №10	
		Prostate extract	Rektal shamlar 10 mg, 20 mg №3, №5, №6, №10	
3	Dentafill Piyus, MChJ	Benzocaine, Bismuth subgallate, Zinc oxide, Menthol	Rektal shamlar №10 (2×5), (1×10)	13
		Glycerol	Rektal shamlar 1,24 g, 2,11 g №10 (2×5)	
		Diclofenac	Rektal shamlar 50 mg, 100 mg №10 (2×5), (1×10)	
		Ibuprofen	Rektal shamlar 60 mg, 125 mg №10 (1×10); №10 (2×5)	
		Indometacin	Rektal shamlar 50 mg, 100 mg, №10 (2×5)	
		Ichthammol	Rektal shamlar 200 mg №10 (2×5), (1×10)	
		Ketoprofen	Rektal shamlar 100 mg №10 (2×5)	
		Clotrimazole	Vaginal shamlar 100 mg №10 (1×10), (2×5)	
		Metronidazole, Miconazole	Vaginal shamlar №7 (1×7)	
		Nystatin	Vaginal shamlar 250000 ED, 500000 ED №10 (2×5), (1×10)	
		Hippophae rhamnoides	Rektal shamlar 0,5 g №10, №20	
		Papaverine hydrochloride	Rektal shamlar 20 mg №10, №20	
		Paracetamol	Rektal shamlar 125 mg, 250 mg №10 (2×5)	

Nº	Ishlab chiqaruvchi firma	Xalqaro nomi	Dori shakli	Soni
4	Radiks, MChJ	Bisacodyl	Rektal shamlar 10 mg №5, №5 (1x5), №10 (2x5)	7
		Metronidazole, Clotrimazole, Chlorhexidine acetate	Vaginal shamlar №7 (1x7)	
		Papaverine hydrochloride	Rektal shamlar 20 mg №10, №10 (1x10)	
		Glycerol	13. Rektal shamlar 1,24 g, 2,11 g №5, №5 (1x5), №10 (2x5)	
		Ichthammol	Rektal shamlar 200 mg №5, №5 (1x5), №10 (2x5)	
		Metronidazole, Clotrimazole, Chlorhexidine acetate	Vaginal shamlar №7 (1x7)	
		Paracetamol	Rektal shamlar 50 mg, 100 mg, 250 mg №5, №10	
5	Pharmacon LLC, MChJ	Prostate extract, Lomefloxacin	Rektal shamlar №5 (1x5), №10 (2x5)	17
		Chlorhexidine	Vaginal shamlar 16 mg №10 (2x5)	
		Heparin sodium, Lauromacrogol 600, Prednisolone	Rektal shamlar №10 (2x5)	
		Metronidazole, Clotrimazole, Chlorhexidine acetate	Vaginal shamlar №7 (1x7)	
		Coccarboxylase hydrochloride, Riboflavin, Thiocetic acid	Rektal shamlar №5 (1x5)	
		Metronidazole, Clotrimazole, Chlorhexidine acetate	Vaginal shamlar №7 (1x7)	
		Metronidazole, Miconazole, Neomycin, Polymyxin, Asian centella	Vaginal shamlar №6 (1x6)	
		Metronidazole, Miconazole nitrate	Vaginal shamlar №7 (1x7)	
		Metronidazole, Clotrimazole, Chlorhexidine acetate	Vaginal shamlar 2800 mg №7 (1x7)	
		Paracetamol	Rektal shamlar 50 mg, 100 mg, 250 mg №5, №10	
		Pipemidic acid	Rektal va vaginal shamlar 200 mg №10	
		Prostate extract	Rektal shamlar №5, №10	
		Prostate extract	Rektal shamlar №5, №10	
		Metronidazole, Miconazole, Neomycin, Polymyxin, Asian centella	Vaginal shamlar №6 (1x6)	
		Benzocaine	Rektal shamlar №12 (2x6)	
		Phenylephrine hydrochloride	Rektal shamlar №12 (2x6)	
		Natamycin	Vaginal shamlar 100 mg №6 (1x6)	

5-jadval

Shamcha dori shaklining farmakoterapevtik guruhlar bo'yicha tahlili

Farmakoterapevtik guruh	2022			2023			2024		
	Mahalliy	MDH	Xorijiy	Mahalliy	MDH	Xorijiy	Mahalliy	MDH	Xorijiy
Analgetik-antipiretiklar	5	6	2	5	5	2	5	4	1
Antibakterial vositalar	1			1			1		
Antibiotiklar	1	2	2	1	2	2		1	1
Antikoagulyant vositalar	1	1		1	1		1	1	
Antiseptik vositalar	4	5	2	4	5	2	4	3	2
Yallig'lanishga qarshi nosteroid vositalar	8	12	15	10	12	14	9	9	11
Zamburug'ga qarshi vositalar	5	9	6	5	9	5	4	8	4
Antiprotozoj vositalar	5	4	5	5	4	4	4	2	3
Ich yumshatuvchi vositalar	8	3	1	7	4		4	3	1
Spazmolitik vositalar	3	4		4	4		3	3	
Akusherlik va ginekologik vositalar	8	11	21	11	4	25	13	2	26
Metabolik jarayonlarni to'g'rilash uchun vositalar	1			1			1		
Prostata kasalliklari uchun vositalar	5	8		5	7		5	8	
Koloproktologik vositalar	5	7	7	5	7	6	4	6	6
To'qimalar funksiyasini rag'batlantiruvchi vositalar	2	6	2	2	6	2	2	5	2

Farmakoterapevtik guruh	2022			2023			2024		
	Mahalliy	MDH	Xorijiy	Mahalliy	MDH	Xorijiy	Mahalliy	MDH	Xorijiy
Dermatoprotektorlar		1			1			1	
Immunomodulyatsiya qiluvchi vositalar		8			8			6	
Immunostimulyatsiya qiluvchi vositalar		1			1			1	
Virusga qarshi vositalar		3			3			2	
Mikroblarga qarshi vositalar		1			1		4		
Uroantiseptik vositalar		1			1				
Ferment, ferment vositalar		2	1		2	1		2	1
Kontratseptiv vositalar			1			1			1
Progestin va ularning sintetik analoglari			2			2			1
Mahalliy og'riqsizlantiruvchi vositalar									1
Gomeopatik, yallig'lanishga qarshi va boshqa dori vositalari									1
Mahalliy qo'llash uchun gemmaroy va orqa teshik yoriqlarini davolovchi vositalar								1	

tiq preparat qayd etilgan. "Ginekologiya va akusherlikda qo'llaniladigan vositalar" soni esa 2022-yilda 40 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 41 tagacha yetgan.

Ayrim guruhlarda yillar davomida doimiy pasayish kuzatilmoqda. Masalan, "Zamburug'ga qarshi vositalar" guruhida kamayish tendensiyasi ko'zga tashlanmoqda. "Immunomodulyatsion vositalar" soni 2024-yilda 6 tagacha kamaygan bo'lib, 2022–2023-yillarda bu ko'rsatkich 8 tadan qayd etilgan.

2024-yilda yangi farmakoterapevtik guruh sifatida "Gomeopatik vositalar" hamda "Mahalliy foydalanish

uchun gemorroy va anal yoriqlarini davolashga mo'ljallangan vositalar" kiritilgan [1,5].

Shamchalar ishlab chiqarish shakliga ko'ra rektal va vaginal guruhlariga bo'linadi. Rektal shamchalar soni 2022-yilda 125 ta, 2023-yilda 124 ta, 2024-yilda esa 105 ta bo'lgan. Vaginal shamchalar esa 2022-yilda 92 ta, 2023-yilda 93 ta, 2024-yilda esa 84 ta shakl bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat reyestriga kiritilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, ro'yxatga olingan shamchalarning 372 tasi sintetik moddalar asosida, 199 tasi ko'p komponentli formulalarga, 57 tasi esa o'simlik xomashyosi asosida ishlab chiqarilgan (6-, 7-jadval).

6-jadval

Shamchalarni chiqarish shakli bo'yicha tahlil natijalari

№	Chiqarish shakli	Soni		
		2022	2023	2024
1	Rektal	125	124	105
2	Vaginal	92	93	84

7-jadval

Shamchalarni kelib chiqishi bo'yicha tahlil natijalari

№	Tarkib	Soni		
		2022	2023	2024
1	O'simlik xomashyosi asosida	21	18	18
2	Sintetik modda asosida	132	133	107
3	Ko'p komponentli	64	68	67

Shamcha shaklidagi dori vositalari bugungi kunda O'zbekiston tibbiyot amaliyotida muhim o'ringa ega. Tahlil qilingan uch yillik ma'lumotlar asosida, ularning turlari va tarkibi xilma-xillashib borayotgani, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilar salmog'i ortayotgani aniqlanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy faol moddalar asosida ishlab chiqilgan kombinatsiyalangan vositalarning ko'payishi klinik ehtiyojlar va farmatsevtik yondashuvlarning uyg'unligidan dalolat beradi.

Yumshoq dori shakllari farmatsevtikada keng qo'llanilayotgan, bemorlar uchun qulay va samarali davolovchi vositalardan biridir. Ularning ko'plab turlari, zamonaviy tarkibi va qo'llashdagi osonligi tufayli bugungi kunda ularga bo'lgan talab yuqori. Shamcha shaklidagi dori vositalari assortimentini kengaytirish, ularni ishlab chiqish, takomillashtirish va samaradorligini oshirish farmatsevtika sanoatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa

1. Shamcha dori shakllari assortimenti hamda ularning mahalliy, MDH davlatlari va xorijiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarish istiqbollari o'rganildi.

2. 2022–2024-yillar davomida tasdiqlangan shamcha dori shaklidagi vositalar soni kamaygan. Jumladan, 2022-yilda 217 ta bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 190 tagacha qisqargan. Mahalliy ishlab chiqarilgan vositalar soni 2023-yilda 67 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 61 tagacha kamaygan. MDH davlatlaridan keltirilgan shamchalar soni 2022 va 2023-yillarda 88 tadan bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 68 tagacha tushgan. Xorijiy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlari esa deyarli barqaror saqlanib qolgan: 2022-yilda – 67 ta, 2023-yilda – 66 ta, 2024-yilda – 61 ta.

3. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shamcha dori shakllari O'zbekiston farmatsevtika bozorida o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Farmakoterapevtik guruhlar ichida yallig'lanishga qarshi nosteroid vosita-

lar, ginekologik vositalar, zamburug'ga qarshi va anti-septik vositalar ustunlik qilmoqda. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa milliy farmatsevtika sanoatining rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasida tibbiyot amaliyotida qo'llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reyestri. – №26, №27, №28. – 2022–2024-yillar.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasi. I jild. Umumiy maqolalar. – Toshkent, 2020. – B. 530–550.

3. Bahromov Q., Ismatov Sh. O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi muammolar va yechimlar // Farmatsevtika va tibbiyot jurnali. – 2023. – T. 4, №2. – B. 45–50.

4. Abdullabekova V.N., Yunusxo'jayev A.N., Yunusxodjayeva N.A., Jo'rayeva A.A. O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi gel dori shaklining marketing tadqiqotlari // Farmatsevtika jurnali. – 2022. – №1. – B. 6.

5. Шишкина А.В., Багирова В.Л. Анализ отечественного фармацевтического рынка мягких лекарственных форм // Фармация. – 2013. – № 1. – С. 28–30.

6. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management in the Pharmaceutical Industry. – Springer, 2021. – 520 p.

7. Toumi M. Pharmaceutical Market Access in Developed Markets. – CRC Press, 2017. – 340 p.

8. Lamberti M.J., Getz K.A. The globalization of clinical trials and its impact on pharmaceutical marketing // Nature Reviews Drug Discovery. – 2019. – Vol. 18, №7. – P. 475–476. – DOI: <https://doi.org/10.1038/d41573-019-00083-0>

9. Aulton M.E., Taylor K.M.G. Aulton's Pharmaceutics: The Design and Manufacture of Medicines. – 5th ed. – Elsevier, 2018. – 944 p.

МЕСТО И АНАЛИЗ ФОРМЫ ВЫПУСКА ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ НА ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОМ РЫНКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Ҳабибуллаева Наргизахон Ҳамидулло қизи,
Зиямуҳамедова Муножот Миргиясовна,
Саидова Мамлакат Ядгаровна

Ташкентский фармацевтический институт, г. Ташкент, Республика Узбекистан
nargizaxonhabibullayeva@gmail.com

В данной статье проведён анализ лекарственных форм суппозиториев, зарегистрированных в государственном реестре за период 2022–2024 гг., представлена терапевтическая направленность действующих веществ, частота их применения, а также структурный анализ производителей. Показано, что в 2024 году доля иностранных производителей на фармацевтическом рынке составила 53,3%, доля препаратов из стран Содружества Независимых Государств (СНГ) – 16,1%, доля отечественных предприятий – 30,6%. Несмотря на некоторое снижение количества лекарственных форм суппозиториев, зарегистрированных на фармацевтическом рынке Узбекистана за 2022–2024 гг., отмечен рост их фармакотерапевтической направленности и структурного разнообразия.

Ключевые слова: суппозитории, маркетинговый анализ, фармакотерапевтическая группа, анальгетик-антипиретик, антибактериальное средство, антибиотик, антикоагулянт, антисептик.

CONTENT PLACE AND ANALYSIS OF THE SUPPULATION FORM IN THE PHARMACEUTICAL MARKET OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Khabibullaeva Nargizakhon Hamidullo kizi,
Ziyamukhamedova Munojot Mirgiyasovna, Saidova Mamlakat Yadgarovna

Tashkent Pharmaceutical Institute, Tashkent City, Republic of Uzbekistan
nargizaxonhabibullayeva@gmail.com

This article analyzes the suppository dosage form registered in the state register for the period 2022–2024, provides a therapeutic direction of the active substances, the frequency of their use, and a structural analysis of manufacturers. It is shown that in 2024, the share of foreign manufacturers in the pharmaceutical market was 53.3%, drugs from the Commonwealth of Independent States (CIS) countries accounted for 16.1%, and local enterprises accounted for 30.6%. Although the number of suppository dosage forms registered in the pharmaceutical market of Uzbekistan during 2022–2024 slightly decreased, their pharmacotherapeutic direction and structural diversity were observed to increase.

Keywords: suppository, marketing analysis, pharmacotherapeutic group, analgesic-antipyretic, antibacterial agent, antibiotic, anticoagulant, antiseptic agent.